



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAX'SUS TA'LIM VAZIRLIGI  
A. QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT  
PEDAGOGIKA INSTITUTI**



**CHET TILLARINI O'RGATISHNING TURLICHA  
YONDASHUVLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR**  
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari 2021 yil 1-iyun

**Proceedings of the International Scientific-Practical  
Conference  
DIFFERENT APPROACHES TO FOREIGN LANGUAGE  
TEACHING: PROBLEMS AND SOLUTIONS  
2021 June 1**

**Jizzax 2021**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY VA O'RTA MAX'SUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI  
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**CHET TILLARINI O'RGATISHNING TURLICHA  
YONDASHUVLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR**

**Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari**

**2021 yil 1-iyun**

**Proceedings of the International Scientific-Practical  
Conference**

**DIFFERENT APPROACHES TO FOREIGN LANGUAGE  
TEACHING: PROBLEMS AND SOLUTIONS**

**2021 June 1**

Jizzax 2021

## MAQOL VA MATALLARNING MILLIY-MADANIY JIHATLARI

*Ikromova Lola Boltayevna BuxDU, Nemis va fransuz tillari kafedrasida o'qituvchisi*

Turli xalqlarning adabiyotlariga nazar tashlar ekanmiz ularning har birida turlicha san'at va turlicha janrlarga duch kelamiz. Ayniqsa maqol-matalshunoslik janriga diqqatimizni qaratsak, o'tmishda ota bobolarimiz tarbiyalarida nasihat, tushuntirish, majbur qilish, rag'batlantirish, ta'qiqlash, maqtash, namuna ko'rsatish, tanbeh berish, po'pisa qilish, kabi usullardan foydalanganlar. Oilada, mahallada bu usullarni qo'llashda axloq-odob qoidalariga suyangan holda bolaning ish harakatining to'g'ri yoki notog'riligi haqida chiroyli so'zlardan, hikoyalardan, hikmatli so'zlardan, maqolu-matallardan misollar keltirganlar va ularga saboq bo'lsin uchun xuddi shu holat yuzasidan namunalarni misol qilib aytib berganlar. Bolalarga axloqlilik va odobsizlik, odillik va adolatsizlik, yaxshilik va yomonlik haqidagi ma'nolarni tushuntirib berganlar. Bunday tarbiya usuli har tomonlama ibratli, qulay yo'l hisoblangan. Chunki bolalarni urish yoki so'kish yo'li bilan tarbiyalash juda xato deb o'ylashganlar, balki ibratli hikoyalardan va hikmatli so'zlar bilan tushuntirish bolaga juda katta ta'sir o'tkazishini bilganlar.

Filologiya fanlari doktori To'ra Mirzayev maqollarning o'rganilishi haqida shunday deydi "Maqolga adabiy nuqtayi nazardan qiziqish, asar badiiyligini oshirish va badiiy til ravonligini ta'minlash uchun undan foydalanish hamma zamon so'z san'atkorlarining diqqat markazida bo'lgan. Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Rabg'uziy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Abulg'oz Bahodirxon, Munis, Ogahiy, Nodira, Muqimiy, Furqat, Avaz, Hamza, Sadridin Ayniy, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Oybek, G'afur G'ulom va boshqa o'nlab ijodkorlarning asarlari sinchiklab o'rganilsa, ularning tarkibida qanchadan qancha maqollar ba'zan aynan, ba'zan o'zgargan holda mavjudligiga ishonch hosil qilamiz".<sup>27</sup>

Xuddi shunday tarbiyaviy usulda ijod qilgan Faxriddin Ali Koshifiy ustoz-shogirdlik haqida asarlar yaratgan. Uning hikoyalari noshukrlik, maqtanchoqlik, shogirdning odobsizligi, yengiltakligi uchun ajoyib hikoyalardan na'munalar keltiriladi. Bundan kelib chiqadiki, noshud shogird kuni boshingizga tushmasligi uchun, bolalarni yoshligidan tarbiyalash ya'ni odob saqlash, kamtarinlik bilan yashash haqida aytib o'tiladi.

Sharq mutaffakirlaridan biri bo'lgan Juvayniy bobomizning Suqrotning o'z shogirdlariga nasihati haqida yaratgan mana bu hikoyati hamma zamonlarda ham ibrat maktabi bo'lib kelgan. "Kimki kattalarning, hayotiy tajribasi ko'p insonlarning pand-o'gitlariga amal qilib o'ssa hech qachon turmushda pand emasligi tarixdan ma'lum. Katta yoshlilar har doim kichiklarga nasihat beradilar. Bu bilan ular kenja avlod-merosxo'rlarning o'zlaridan keyin yaxshi insonlar bo'lib qolishlari uchun ezgu istakdir, xolos. Bolajonlar, hayotda ustoz-shogird degan gap bor. O'qish, hunar o'rganishda ustoz-shogirdlarning ahamiyati buyuk bo'ladi. Kimki bunga e'tibor bersa, o'sha inson yutadi".<sup>28</sup>

Tarixdan ma'lumki, maqollar va matallar insoniyat taraqqiyotida avlod-dan-avlodga ko'chib, turli xil hayot sinovlaridan o'tib kelayotgan umuminsoniy, madaniy va ma'naviy an'analarni, milliy qadriyatlarni o'zida mujassam qilib kelayotir. Chunki ular jamoa ijodkorligining mahsuli bo'lib, insonlarning dunyoqarashi, aql-zakovati, orzu-armonlari, talab-

<sup>27</sup> To'ra Mirzayev. So'zdanso'zningfarqi bor. UmidBekmuhammad. Dunyoga tarqalgan o'zbek maqollari

<sup>28</sup> Алиёрова Шахноза - Kichikyoshdagimaktabo'quvchlarinimanaviy-axloqiy tarbiyalashdaxalq qo'shiqlarining tarbiyaviy ahamiyati

ehtiyoblari yuzasidan kelib chiqqan holda yaratilgan. Xalqning bunday ijodkorligi o'z navbatida asrlarni talab qilgan, va avloddan-avlodga o'tib kelayotgan o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari- qo'shiq, maqol, matal, topishmoq, afsona, rivoyat, latifa, doston va naqllardan iboratdir. Va bunday asarlarda insonning ruhiy kechinmalari aniq, ibratli va qiziqarli qilib tasvirlanadi. Xalq o'g'zaki ijodiga kiruvchi maqollarda hayotiy tajriba, milliy an'analar, urf-odatlar, va hayotfalsafasi nomoyon bo'ladi.

Yana biz xalq og'zaki poetik ijodiga murojat qiladigan bo'lsak, u yerda shunday yoziladi - "Maqol xalq hayotiy tajribalari xulosasini badiiy jihatdan mukammal ifodalovchi hikmatli so'zlardan iboratdir. Maqollarda ifodalanishi lozim bo'lgan fikr va mazmun keng qamrovli bo'ladi. Bizning fikrimizcha, har bir maqolning vujudga kelishida birorta ibratli voqea ro'y bergan va bu voqea o'ta zukko, sinchkov dono ajdodlarimiz vakili tomonidan kuzatilishiga sabab bo'lgan"

Shunday qilib bir qator maqollarni misol tarzida keltiradigan bo'lsak, yuqorida aytib o'tkanimizdek ibratli voqea yoki hikmatli so'zlarni ifodalashga xizmat qiladi. Misol uchun bir qator tillardagi maqollarni ko'rib o'tamiz : "Ilon chaqqan, arqondan qo'rqr" (ingliz), "Kuygan mushuk sovuq suvdan qo'rqr" (fransuz), "Jo'jani tuxum ochilgandan so'ng sana"(ingliz), "Bigizni qopda yashirib bo'lmas" (rus) maqollari bo'lsa "Qo'rqqanga arqon, ilon bo'lib ko'rinar" yoki "Qo'rqqanga qo'sh ko'rinar", "Sutdan kuygan qatiqni ham puflab ichar", "Jo'jani kuzda sanaymiz", "Oyni etak bilan yopib bo'lmas" kabi o'zbek maqollaridagi o'xshash ma'noni bildiradi.[4, 21 p]Barcha xalq maqollarining tub negizida asosan xalq dardi, oila tashvishlari, bola tarbiyasi, katta va kichiklar o'rtasidagi munosabat, ta'lim-tarbiya haqidagi keng tushunchalar yaqqol ochib beriladi. Shu sababdan o'zbek xalq maqollarining mazmunida ham xalq, vatan, mehnat, oila, oliy insoniy fazilatlar mujassamlashtiradi. Demak, bunday xalq og'zaki ijodda odamlar o'rtasidagi nizolar, hamisha tinch yo'li bilan hal qilish, qayta-qayta takrorlanadi. "Et tirnoqdan ayrilmas", "Tog' tog'ga qovushmaydi, odam odamga qovushadi", kabi maqollar shular jumlasidandir. Ayni paytda bu aytilgan fikrlarga amal qilish va yodda tutishlikni anglatadi. Tasavvur qiling, nizo kelib chiqdi insonlar orasida, bu muammoning yechimini topish xalq maqollarining tub mohiyatida o'z ifodasini topgan. Ahamiyatli tarafi shundaki, nizo kelib chiqqanda nafaqat bir tarafga balki ikkinchi tarafga ham zarar kelishi mumkinligi haqida ham ta'kidlab o'tiladi. "Ayrilganni ayiq yer, bo'linganni bo'ri", "Bir kun urush bo'lgan uydin, qirq kun baraka ko'tarilar" kabi maqollar shu jumlasidandir.

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lu'gatit-turk" asarida ham shunday maqollar o'rin olganki, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, hamjihatlilik, vafodorlik, mardlik kabi mazmundagi namunlar keltirilgan. Bu maqollarda xalqimizning shakllanib kelayotgan millat-xalq ekanligini ko'rsatib o'tiladi. Masalan quyidagi maqolga e'tibor bersak: "Ot kuragidagi yag'ir, bolalariga me'ros bo'lib qoladi". Demak bu yerda har bir inson bora-bora o'z nasliga tortishi haqida aytib o'tilgan. Ma'lumki, har bir inson nafaqat iqtisodiy tarafdin nasliga tortishi emas balki, saxiyligi, kechirimlilik va yaxshi xulq atvorni o'zlashtirishi haqida so'z boradi. Hayot tajribasidan shuni bilib olish mumkinki, oiladagi muhitning bola tarbiyasiga ta'sir etishi bilan birgalikda, qon orqali ham nasldin naslga o'tishi haqida fikrlar keltiriladi.

Biz maqollar haqida bir necha misollar keltirib, tanishib o'tdik, endi matallar haqida ham birmuncha ma'lumotga ega bo'lsak, ya'ni maqollar bilan matallarning bir-biridan farqi bormi? Nega bu ikki so'z ko'p hollarda birga keladi? Xuddi shunday savollarga quyidagicha javob topamiz.

Shuningdek, matallar shakl va mazmun jihatidan maqollarga o'xshash janr hisoblanadi, faqat ularning matni, hajmi, badiiyliги jihatdan maqollarga yaqinligini juda ko'plab olimlar

tasdiqlaganlar. Hatto, ba'zi hollarda maqol bilan matalning almashgan holda qo'llanishini uchratganlar. Matallarning asosiy vazifasi so'zlovchi nutqining ta'sirchanligini oshiradi, ya'ni shaklan go'zallashtiradi. Ammo maqol bilan matalning o'ziga xos jihatlari borki, ularni doim bir-biridan farqlab olish mumkin. "Masalan, maqollarda hayotda ro'y bergan voqealarning umumlashtirilgan holati misol keltiriladi. Tasdiq yoki inkor ma'nolarni anglatib keladi. Ayni paytda xalq maqollari mazmun jihatdan tugal fikrga ega bo'ladi va ular alohida qo'llanilsa ham ma'no anglatadi".

Matallar esa so'zlovchi nutqining biron muhim qismi sifatida ishlatiladi. Matallarni alohida qo'llash mumkin bo'lmaydi, chunki ular mazmunan tugal fikr anglatmaydi. Masalan: "Falonchi ilon inidan chiqadigan qilib gapirdi" jumlasini olaylik. Agar "ilon inidan chiqadigan" matali bu jumladan olib tashlansa, uning o'rniga yaxshi so'zini qo'yish mumkin. Natijada. "Falonchi ilon inidan chiqadigan qilib gapirdi" jumlasini "falonchi yaxshi gapirdi"ga teng bo'ladi. Ammo "ilon inidan chiqadigan" so'z birikmasi alohida qo'llanganda mustaqil ma'no anglatmaydi. Shu bilan birga "Yaxshi so'z bilan ilon inidan, yomon so'z bilan qilich qinidan chiqar" maqolini ham esga olish mumkin. Mazkur misoldagi "ilon inidan" so'zlariga diqqat qilaylik, chunki bu so'zlar mustaqil qo'llanganda bo'lak fikr anglatuvchi maqolning tarkibiy qismidir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, matal va maqolning kelib chiqishi xalq og'zaki ijodida tutgan o'rni, turli xil vaziyatlarni ifoda qilish ko'rinishida bir-biriga o'xshab ketadi. Ammo bu ikkalla janrning tarixiga nazar tashlasak, birisi maqol ko'rinishida shakllangan bo'lsa, ikkinchisi matal ko'rinishida bizga yetib kelgan.

Shunday qilib, maqollar – matallar shakl va mazmunan jihatdan yaqin bo'lsada, ammo maqollar, matalga qaraganda erkin janr, matalda esa bunday janr nazarga tashlanmaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. To'ra Mirzayev. So'zdan so'zning farqi bor. Umid Bekmuhammad. "Dunyoga tarqalgan o'zbek maqollari"
2. Алиёрова Шахноза. "Kichik yoshdagi maktabo'quvchlarini manaviy-axloqiy tarbiyalashda xalq qo'shiqlarining tarbiyaviy ahamiyati"
3. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. T. "O'qituvchi", 1990. 84—90-betlar
4. Xalq og'zaki poetik ijodi. O. Madayev, T. Sobitova [4, 21 p]
5. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. T. "O'qituvchi", 1990. 84—90-betlar.
6. Sarimsoqov B. O'zbek folklorining janrlar sostavi. O'zbek folklori ocherklari, 1-jild, T., 1988. 64—85-betlar
7. M.M. Jo'rayeva, Fransuz va o'zbek ertaklarida modallik kategoriyasining lingvokognitiv, milliy-madaniy xususiyatlari. Toshkent-2016 [7, b.144]
8. Ikromova L.B, Nabiyeva Z. Rasulova M. "The similarities and differences of proverbs with other genres". Scopus. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 06, 2020 ISSN: 1475-7192
9. Ikromova. L.B, Rashidova Q.Sh. "O'zbek xalq maqollarining paydo bo'lishi". Международный научно-образовательный электронный журнал «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ» Выпуск №11 (том 3) (февраль, 2021). Дата выхода в свет: 28.02.2021. Rashidova Qunduz Shuhratqizi